

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati
Yagona aksiyadorining 29 - sonli qarori

2024-yil 29 noyabr

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-son Farmoni bilan tashkil etilgan “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) Yagona aksiyadori O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanadi.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

1. “O‘zenergosotish” AJning ichki korporativ xujjatlarini tasdiqlash.

2. “O‘zenergosotish” AJning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligining (Yagona ta‘sischi) 2023-yil 24-noyabrdagi 1-son qarori bilan “O‘zenergosotish” AJ tashkil etilgan va Jamiyat Ustavi 2023-yil 1-dekabrda tegishli davlat idoralarida ro‘yxatdan o‘tgan.

Jamiyatning Yagona ta‘sischisi tomonidan 2024-yil 12-fevralda uning faoliyatiga Korporativ boshqaruv kodeksini va Korporativ boshqaruv qoidalarini tadbqiq etish yuzasidan 3-sonli qaror qabul qilingan.

Shuningdek, Jamiyat Yagona ta‘sischisining mazkur qarori bilan “Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”, “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”, “Ijroiya organi to‘g‘risida”, “Ijroiya organiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida” va “Kuzatuv kengashiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Jamiyatning nizomlari ham tasdiqlangan.

Shu bilan birga, Jamiyat faoliyatiga Korporativ boshqaruv kodeksi tadbqiq etilganligini inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va tegishli Nukumat qarorlari talablaridan kelib chiqib:

“Manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelganda harakatlar tartibi to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJda Ichki nazorat to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJning Kuzafuv kengashi to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJning dividend siyosati to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJ Ijro organi rahbari va a‘zolari lavozimiga tanlovni tashkil qilish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJ Kuzafuv kengashi majlislarini avtomatlashtirilgan tarzda, so‘rovnoma yo‘li bilan hamda video-konferens-aloqa tarzida o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolariga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJda ma‘lumotlarni maxfiy ma‘lumotlar va tijorat sirlari turkumiga kiritish mezonlari, ularning maxfiyligini ta‘minlash, ularning oshkor etilishi va noqonuniy foydalanilishi ustidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan homiylik va beg‘araz yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining “Audit qo‘mitasi to‘g‘risida”gi nizom;

“O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining Strategiya va investitsiyalar bo‘yicha qo‘mitasi to‘g‘risida”gi nizom, loyihalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular Jamiyat Yagona aksiyadori tomonidan tasdiqlanishi lozim hisoblanadi.

Mazkur nizomlar loyihalari Jamiyat Kuzafuv kengashining 2024-yil 10-sentabrdagi 4-sonli majlisida ko‘rib chiqilib, tasdiqlash uchun Jamiyatning Yagona ta’sischisiga kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda “Yenergosotish” AJda Korporativ boshqaruv tizimini tylaqonli йўlga qyilishini taъminlash maqsadida, Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zenergosotish” AJda manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelganda xarakatlar tartibi to‘g‘risida”gi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zenergosotish” AJda Ichki nazorat to‘g‘risida”gi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “O‘zenergosotish” AJning Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. “O‘zenergosotish” AJning dividend siyosati to‘g‘risida”gi nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. “O‘zenergosotish” AJ Ijro organi rahbari va a’zolari lavozimiga tanlovni tashkil qilish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi majlislarini avtomatlashtirilgan tarzda, so‘rovnoma yo‘li bilan hamda video-konferens-aloqa tarzida o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom 6-ilvaga muvofiq tasdiqlansin.

7. “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi a’zolariga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizom 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. “O‘zenergosotish” AJda ma’lumotlarni maxfiy ma’lumotlar va tijorat sirlari turkumiga kiritish mezonlari, ularning maxfiyligini ta’minlash, ularning oshkor etilishi va noqonuniy foydalanilishi ustidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi nizom 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. “O‘zenergosotish” AJ tomonidan homiylik va beg‘araz yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi nizom 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining Audit qo‘mitasi to‘g‘risida”gi nizom 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining Strategiya va investitsiyalar bo‘yicha qo‘mitasi to‘g‘risida”gi nizom 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan:

Jamiyafiring amaldagi tashkiliy tuzilmasiga ko‘ra, Jamiyat Markaziy apparati xodimlarining soni 60 tani tashkil etib, bugungi kunda Jamiyat faoliyati to‘laqonli yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga, Jamiyat Kuzatsv kengashining 2024-yil 10-sentabrdagi 4-sonli qarori bilan Jamiyatning Yangi tashkiliy tuzilmasi ma’qullangan va tasdiqlash uchun Jamiyatning Yagona aksiyadoriga kritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

1. “O‘zenergosotish” AJning yangi tashkiliy tuzilmasi mazkur Qarorning 10-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish jamiyat Boshqaruv raisi zimmasiga yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vaziri
o‘rinbosari



X. Mustafayev